

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

№5
2025

MAKON VA ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

2025/5 (№7)

M u a s s i l a r: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*
M.Abdullayeva, *s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O‘.Abilov, p.f.d., professor*
R.Choriyev, *p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,*
i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:

Qiyom Nazarov – f.f.d., professor

Nashrga tayyorlovchilar:

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000,

Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturasini.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

MUNDARIJA:

| | | |
|-----------------------------|--|----|
| Бош муҳаррир минбари | Ўзбек фалсафасининг умуминсонийлик ва миллийлик тамойиллари | 5 |
| Х. То‘хтаев | Qadriyatlar sohasi va aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyasini ilmiy-falsafiy tahlili | 10 |
| Г.Наврўзова | Ибн Синонинг тасаввуфий устози..... | 14 |
| N.Kuvvatov | O‘tish davrining yangi O‘zbekiston bosqichi | 18 |
| Х.Саитходжаев | Хуқуқий нигилизм ёшлар хуқуқий маданиятига салбий таъсир этувчи омил сифатида..... | 22 |
| Н.Салиева | Олий таълим тизимида аёллар етакчилигини шакллантиришнинг мафкуравий асослари ва институционал имкониятлари..... | 27 |
| Х. Xidirov | XXI – asr yoshlar tarbiyasida ta’lim jarayoni axborotlashuvining o‘rni va ahamiyati..... | 31 |
| Г.Ўразалиева | Оила институтини мустаҳкамлашда гендер тенглигининг аҳамияти | 35 |
| Г.Нишонбоева | Маданиятнинг функциялари ва унинг жамиятдаги ўрни..... | 40 |
| Б.Узоков | Қадриятлар ва илм-фан ривожини..... | 44 |
| М.Ҳекубова | Global jarayonlar ta’sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi..... | 48 |
| I.Axmedov | Yangi O‘zbekistonda ma’naviy g‘oyalar transformatsiyasi jarayonida ta’lim tizimi bilan hamkorlik masalalari..... | 52 |
| Х. Холиқулова | Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги ва раҳбарлик лавозимларидаги иштироки..... | 55 |
| З.Надинова | Интуиция – оқилона қарор қабул қилиш воситаси..... | 59 |
| U.Muxtarov | Falsafiy ta’limotlar tarixida mehnatga munosabat haqidagi g‘oyalar takomili..... | 63 |
| Б.Мамадаминова | Оила — маънавиятимиз таянчи..... | 66 |
| G.Azamatova | Migrant хотин-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari..... | 69 |
| U.Ergashev | Toshko‘prizodaning “Latoif un-Nabiy” asari to‘g‘risida..... | 72 |
| G.Rashidova | Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy darslarning zarurati..... | 75 |
| Q.Samandarov | Chig‘atoy ulusi chog‘ida Turkiston mintaqasida dinlararo munosabatlar..... | 79 |
| Х.Ботирова | Мустақиллик йилларида аграр соҳада мулкый муносабатлар шаклланиши ва хуқуқий асослар яратилиши..... | 83 |
| З.Ёдгоров | Янги Ўзбекистон ва спортдаги ислохотлар..... | 86 |
| З.Абдуазимова | Экологическая этика как важный фактор преодоления глобальных экологических проблем..... | 90 |
| M.Umarova | Buxoro amiri Shohmurod ibn Doniyolbiyning Turk sultonlari bilan elchilik munosabatlari..... | 94 |
| Sh.Abdug‘aniyev | Axborotlashgan jamiyat tushunchasi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari..... | 98 |

GLOBAL JARAYONLAR TA'SIRIDA KOMMUNIKATIV REALLIKDA MAKON VA VAQT TUSHUNCHALARINING TRANSFORMATSIYASI**Mavluda Yekubova****O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n.**

Annotasiya. Maqolada, global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, kommunikativ reallik, global jarayonlar, makon, vaqt, texnologik taraqqiyot, globallashuvning ijtimoiy oqibatlar.

Аннотация. В статье раскрывается сущность трансформации понятий пространства и времени в коммуникативной реальности под влиянием глобальных процессов.

Ключевые слова: Информатизированное общество, коммуникативная реальность, глобальные процессы, пространство, время, технологический прогресс, социальные последствия глобализации.

Annotation. The article reveals the essence of the transformation of space and time concepts in communicative reality under the influence of global processes.

Keywords: Informed society, communicative reality, global processes, space, time, technological progress, social consequences of globalization.

Axborotlashgan jamiyatda kechayotgan globallashuv jarayonlari va texnologik taraqqiyot fonida paydo bo'lgan kommunikativ reallik - insonning ijtimoiy borliqda o'zini anglash shakli sifatida yangicha falsafiy tahlilni talab qilmoqda. Bu tahlil doirasida kommunikatsiya endi shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki mavjudlikning muhim shakli, ijtimoiy haqiqatning konstruktiv asosidir. Zamonaviy sharoitda kommunikativ reallikning mohiyatini aniqlash ontologik asoslarda mavjudlikning yangi paradigmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ reallik — ontologik jihatdan, insonning reallikda ishtirok etish shakli sifatida namoyon bo'ladi. U faqat tashqi voqelikni aks ettirish emas, balki sub'yektiv voqelikni konstruksiya qilish mexanizmini ham o'z ichiga oladi. Ushbu reallikda mavjudlik "bo'lish" emas, balki "bo'lish haqida axborotga ega bo'lish" orqali mavjudlikka aylanish sifatida talqin qilinadi. Shunday ekan, zamonaviy kommunikatsion makon - real va virtual o'rtasidagi diffuziya natijasida hosil bo'lgan, aks ettirishdan ko'ra ko'proq rekonstruksiya qilish, ya'ni borliqni qayta qurish maydonidir.

Global jarayonlar zamonaviy kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining falsafiy qayta talqinini taqozo qilmoqda. Insonning borliqni idrok etishi endilikda nafaqat tarixiy va hududiy kontekstlar bilan, balki globallashuv oqimlari bilan belgilanmoqda. M.Heidegger vaqtning ontologik mohiyatini izohlab, "vaqt inson mavjudligining gorizontall tuzilmasidir, unda o'tmish, hozirgi va kelajak bir-biriga singib ketadi"[1] deya ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, global kommunikativ reallikda vaqtning bunday sintez xususiyati yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda, inson bir vaqtning o'zida turli makon va kontekstlarda mavjudlikni boshdan kechirmoqda. Ilmiy-ijodiy izoh sifatida bu shuni anglatadiki, texnologik tezlik va globallashuv jarayoni Heidegger tasvirlagan vaqtning ontologik qatlamini amaliy hayotda yangi mazmunga to'ldirmoqda.

P.Ricoeur esa vaqtning narrativ mohiyatini sharhlab, "inson vaqtni hikoya qilish orqali anglaydi, chunki hikoya vaqtning parchalanishini birlashtiruvchi vositadir"[2] deya qayd etadi. Bu qarash kommunikativ reallikning global jarayonlarda qanday shakllanishini tushunishda muhimdir. Axborot oqimlari inson hayotining narrativ yaxlitligini buzishi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini ham beradi. Ilmiy munosabat sifatida aytish mumkinki, global

kommunikatsiya insonning o'z vaqtini hikoya qilish jarayonini transmilliy kontekstlarga yoyadi va natijada o'zlikni anglashning yangi shakllarini yuzaga keltiradi.

Faylasuf Marshall McLuhan esa texnologik taraqqiyotga urg'u berib, "globallashuv sharoitida dunyo axborot vositalari orqali global qishloq'ga aylanadi"[3] deya ta'kidlaydi. Bu fikr kommunikativ reallikda makon tushunchasining qanday transformatsiyaga uchrayotganini ko'rsatadi. Geografik masofalar o'z ahamiyatini yo'qotadi, muloqot esa birdaniga global miqyosda yuzaga keladi. Ilmiy talqin shuni ko'rsatadiki, makon endilikda antropologik kategoriya sifatida emas, balki kommunikativ tizimlarning uzluksiz oqimi sifatida idrok etilmoqda.

Global jarayonlarning tezlashuvi va texnologik rivojlanish natijasida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalari keskin transformatsiyaga uchramoqda. Endilikda insoniyatning ijtimoiy-madaniy tajribasi hududiy chegaralar bilan emas, balki axborot oqimlarining uzluksiz tezligi bilan belgilanmoqda. P.Virilio bu holatni "tezlikning hukmronligi" sifatida izohlaydi va "zamonaviy jamiyatda vaqtning o'lchovi tezlik bo'lib, makon esa bu tezlik orqali qisqarib boradi"[4] deya ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, kommunikativ reallikning transformatsiyasi insonning borliqni idrok etish shaklini tubdan o'zgartiradi, makon tobora "yo'qolib", vaqt esa faqat intensiv tezlikda mavjud bo'la boshlaydi. Ilmiy mulohaza sifatida bu fikr shuni ko'rsatadiki, global jarayonlarda muloqot endi hududiy barqarorlikdan ko'ra tezlik paradigmasi orqali quriladi.

Sotsiolog va faylasuf Zygmunt Bauman esa bunday o'zgarishni "suyuq modernlik" (liquid modernity) konsepsiyasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, "zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlar vaqt va makon jihatdan mustahkam tuzilmalarga emas, balki oson buziluvchi va tezkor aloqalarga asoslanadi". [5] Bu qarash shuni ko'rsatadiki, kommunikativ reallikda makoniy barqarorlik o'rnini vaqtinchaliklik egallagan, inson esa o'zining mavjudligini doimiy o'zgaruvchan muloqotni oqimlarda qayta qurishga majbur. Ilmiy-ijodiy talqin sifatida aytish mumkinki, Bauman muloqotni faqat ijtimoiy aloqalar shakli sifatida emas, balki mavjudlikning beqaror, "suyuq" holati sifatida talqin qiladi.

D.Harvey esa global kapitalizmni tahlil qilar ekan, bu hodisani "vaqt va makonning siqilishi" deb ataydi. Unga ko'ra, "texnologik taraqqiyot va iqtisodiy globallashuv natijasida geografik masofa o'z ahamiyatini yo'qotmoqda, ijtimoiy jarayonlar esa tezlik bilan bir-biriga ulanmoqda". Bu fikrga asosan, kommunikativ reallikning global sharoitda makoniy chegaralarsiz oqimga aylanishini ochib berilgan. Demak, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, Harvey g'oyasi muloqotning ekzistensial mohiyatini qayta talqin qiladi, inson endilikda makoniy barqarorlikdan emas, balki vaqtning intensiv tezligidan iborat mavjudlik sharoitida yashamoqda.

M.Castells ham axborot jamiyatini tahlil qilar ekan, "tarmoq jamiyati yangi zamoniyligni yaratadi, unda vaqt oqimlari global tarmoqlar tezligiga moslashadi, makon esa 'oqimlar makoni'ga aylanadi" deya yozadi. Bu yondashuv kommunikativ reallikni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida ham ochadi. Chunki makon va vaqtning bunday transformatsiyasi insonning mavjudlik tajribasini tubdan o'zgartiradi, vaqt endilikda chiziqli emas, balki sinxronlashtirilgan oqimlar shaklida kechadi, makon esa geografik barqarorlikdan ko'ra kommunikativ aloqalar tizimida mavjud bo'ladi.

Global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi zamonaviy falsafaning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligiga sabab, bu jarayon insoniyatning mavjudlik tajribasini tubdan o'zgartirayotganligi, endilikda makon geografik barqarorlik emas, balki oqimlar dinamikasi bilan belgilanayotganligi, vaqt esa chiziqli davomiylikdan ko'ra tezlik paradigmasi orqali anglanayotganligini e'tirof etish mumkin.

Faylasuf Mishel Fuko Foucault bu o'zgarishni "g'oyalar tarixi endilikda vaqtning chiziqli harakati emas, balki diskursiv makonlarning o'zaro almashinuvi orqali shakllanadi" deya izohlaydi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, kommunikativ reallikda vaqtning tarixiy izchilligi zaiflashib, makoniy kontekstlar birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy talqin sifatida aytish

mumkinki, bu jarayon inson borlig'ining anglanish shaklini tarixiy davomiylikdan diskursiv fragmentarlikka siljitmoqda.

Global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi tobora murakkablashib, inson mavjudligini idrok etishning yangi falsafiy ufqlarini ochmoqda. Bu jarayonni J.Baudrillard simulyakr nazariyasi orqali izohlab, "postmodern davrda vaqt va makon o'zining real asoslarini yo'qotib, belgilar va tasvirlar o'yini ichida yashaydi" deya ta'kidlaydi. Bu qarashga asosan, kommunikativ reallikda makon va vaqtning obyektiv o'lchov sifatida emas, balki simulyativ konstruktsiya sifatida mavjud bo'lishini ko'rsatadi. Ilmiy mulohaza sifatida shuni qayd etish mumkinki, Baudrillard nazariyasi inson mavjudligini "real" tajribadan emas, balki axborot oqimlari va belgilar dunyosida qurilgan simulyativ mavjudlik sifatida talqin qiladi, bu esa kommunikativ reallikni ekzistensial jihatdan zaiflashtiruvchi, ammo shu bilan birga uni yangi shakllarda qayta yaratuvchi jarayondir.

Global jarayonlar kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarini tubdan o'zgartirib yubormoqda, bu o'zgarishlar insonning mavjudlikni idrok etish mexanizmlarini yangidan belgilab bermoqda. A.Giddens bu jarayonni "vaqt va makonning ajralib chiqishi" deb ta'riflab, "zamonaviylik sharoitida kundalik faoliyatlar an'anaviy hududiy chegaralardan chiqib, global o'zaro bog'liqlik doirasida amalga oshadi" deya ta'kidlaydi. Bu fikr kommunikativ reallikda makon endilikda geografik emas, balki ijtimoiy va texnologik oqimlar bilan belgilanayotganini ko'rsatadi. Ilmiy mulohaza sifatida shuni aytish mumkinki, Giddensning yondashuvi makonning transformatsiyasi inson ongida zamoniylilikning yangi sifat bosqichini yuzaga keltirishini ochib beradi.

D.Harvey bu jarayonni "vaqt va makonning siqilishi" metaforasi orqali ifodalaydi va "kapitalistik globallashtirish hamda texnologik tezlashuv natijasida masofa qisqarib, ijtimoiy jarayonlar bevosita bir-biriga ulanmoqda" deb yozadi. Olim talqinicha, kommunikativ reallikda vaqtning o'lchovi tezlikka aylanmoqda, makon esa uzluksiz global aloqalarning fonida o'zining mustahkamligini yo'qotmoqda. Demak, Harvey g'oyasi insonning mavjudlik tajribasi endilikda "tezkorlik" mezonlari bilan belgilanayotganini, bu esa ekzistensial darajada vaqtning o'zgacha sezilishini keltirib chiqarishini anglatadi.

Sotsiolog Manuel Castells global tarmoqlarning tezligini tahlil qilgan ekan, u "axborot davrida vaqt oqimlari global tarmoqlarning tezligiga moslashadi, makon esa "oqimlar makoni" sifatida shakllanadi" deya ta'kidlaydi. Uning qarashicha, kommunikativ reallikda makonning barqaror geografik chegaralari emas, balki virtual va global oqimlar orqali tashkil topishini ko'rsatadi. Umuman olganda, inson endilikda "joy" bilan emas, balki tarmoq aloqalari orqali mavjudlikni his qiladi, vaqt esa sinxronlashtirilgan global ritmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi masalasi zamonaviy falsafaning eng murakkab nazariy muammolari doirasida tahlil qilinmoqda. Insonning mavjudlik tajribasi tobora ko'proq global kommunikatsion oqimlar bilan belgilanmoqda. Faylasuf Agnesh Heller t'kidlaganidek, "modernlikning paradoksi shundaki, vaqt va makon doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi, ular hech qachon yakuniy shaklga ega bo'lmaydi". Ushbu yondashuv kommunikativ reallikda makon va vaqtning transformatsiyasini bitmas-tuganmas jarayon sifatida ko'rsatadi. Shuni qayd etish mumkinki, Hellerning fikrlari insonning mavjudlik tajribasi global oqimlar sharoitida hech qachon yakuniy emas, balki doimiy o'zgaruvchan shaklga ega ekanini ta'kidlaydi.

Faylasuf Andre Gorz esa, vaqt va makonning transformatsiyasini mehnat va axborot oqimlari bilan bog'lab tahlil qilib, "postindustrial jamiyatda vaqt ishlab chiqarish vositasiga, makon esa iste'mol oqimlarining foniga aylanadi" deb yozadi. Bu yondashuvga asosan, kommunikativ reallik global jarayonlar ta'sirida vaqtni iqtisodiy tezlik va samaradorlik mezonlari bilan o'lchaydi, makonni esa ijtimoiy iste'mol jarayonlarining aks ettiruvchi konstruktsiyasiga aylantiradi. Demak, bu qarash kommunikativ reallikda vaqt va makon endi faqat ontologik emas, balki iqtisodiy-siyosiy kuchlarning bosimida shakllanayotganini anglatadi.

Global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi zamonaviy tafakkur va ijtimoiy-falsafiy nazariyalar doirasida chuqur tahlilni talab etadigan murakkab jarayonga aylanishi, insonning endilikda an'anaviy makon va vaqt kategoriyalarida emas, balki global tezlik, transmilliy oqimlar va virtual tizimlar orqali shakllanayotgan yangi borliq tajribasida yashayotganligidan dalilat beradi. Antropolog Mars Augé bu jarayonni "surmodernlik antropologiyasi" nuqtai nazaridan tahlil qilib, "zamonaviy dunyoda "joylar" o'zining identifikatsiya va tarixiy xotira beruvchi vazifasini yo'qotmoqda, ular o'rnini "non-lieux" - o'tkinchi va tranzit makonlar egallamoqda" deya ta'kidlaydi. U ta'limoticha kommunikativ reallikda makon tushunchasi antropologik barqarorlikdan virtual va tranzitlikka siljiganini ko'rsatadi. Shuni qayd etish mumkinki, Augé nazariyasi globallashuv sharoitida makon insonni barqarorlik emas, balki doimiy o'tkinchilik orqali belgilab qo'yishini ta'kidlaydi.

Global jarayonlar ta'sirida kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarining transformatsiyasi nafaqat texnologik o'zgarishlar, balki ijtimoiy-falsafiy ongning tubdan yangilanishi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Chunki insoniyat bugun o'zining mavjudligini geografik hududlar yoki an'anaviy vaqt izchilligi bilan emas, balki transmilliy axborot oqimlari va virtual aloqalar tezligi bilan belgilamoqda. A.Toffler bu borada, "yangi sivilizatsiya to'liqini vaqtni keskin tezlashtirdi, makonni esa qisqartirdi, natijada inson mavjudligi mutlaqo yangi ritm va koordinatalarda kecha boshladi". Demak, ushbu yondashuv kommunikativ reallikda vaqtning chiziqli oqimdan global tezlik paradigmasiga, makonning esa geografik barqarorlikdan tarmoqli oqimlarga o'tganini ko'rsatadi. Ilmiy mulohaza sifatida qayd etish lozimki, Toffler fikrida vaqt va makon endi ob'ektiv kategoriya sifatida emas, balki jamiyatni tashkil etuvchi dinamik kuch sifatida talqin qilinadi.

Global jarayonlarning jadallashuvi kommunikativ reallikda makon va vaqt tushunchalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Insoniyat tarixan makonni geografik hudud, vaqtni esa chiziqli oqim sifatida anglab kelgan bo'lsa, bugun globallashuv va axborot oqimlari natijasida bu kategoriyalar o'zining klassik shaklini yo'qotmoqda. M.Castells esa "tarmoq jamiyati" konsepsiyasida bu jarayonni ijtimoiy-texnologik nuqtai nazardan sharhlab, "axborot jamiyatida vaqt oqimlari tarmoq tezligiga moslashadi, makon esa oqimlar makoni sifatida shakllanadi" deb yozadi. Bu yondashuvga asosan, kommunikativ reallikda makon geografik barqarorlikdan uzilib, virtual va transmilliy oqimlar tizimiga aylanganini, vaqt esa global sinxronlashtirilgan ritmlarda namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Castells ta'limoti kommunikativ mavjudlikning zamonaviy tajribasini tarmoqlar orqali bir-biriga ulangan, chegarasiz borliq sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa qilganda, kommunikativ reallik — bu axborot, vaqt va makonning yangi konfiguratsiyasi bo'lib, u ijtimoiy mavjudlikning identifikatsiya, interpretatsiya va modellashtirish vositasiga aylanmoqda. Bu esa falsafiy tafakkurga kommunikatsiyani axborotiy emas, balki ontologik, gnoseologik va aksiologik holat sifatida qayta ko'rib chiqishni taklif etadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, raqamli jamiyatda insonning axborotli o'z-o'zini anglash imkoniyatlari, muloqotdagi identiklik, subyektivlik va zamonaviy kommunikativ makonlardagi tafakkur shakllari nuqtai nazaridan chuqur tahlil etilishi lozim bo'lgan ilmiy-metodologik zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heidegger M. Sein und Zeit. – Tübingen: Niemeyer, 2006. – 437 s. – S. 329.
2. Ricoeur P. Temps et récit. – Paris: Seuil, 1983. – T. 1. – 427 p. – P. 85.
3. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964. – 359 p. – P. 63.
4. Virilio P. La vitesse de libération. – Paris: Galilée, 1995. – 188 p. – P. 41.
5. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p. – P. 14.